

Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi) ta'lim dasturining ta'lim natijalari

Ta'lim natijalari (kompetensiyaning asosiy birliklari):	
TN 1.	Turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qila olish va o'z fikrini o'zbek, rus va xorijiy tillarda ifoda eta olish. Falsafiy, tarixiy va bahs-munozara usullari orqali asosli qarorlar qabul qila olish hamda yetakchilik jamoalarida samarali faoliyat yurita olish.
TN 2.	Muhandislik psixologiyasi, pedagogika, ekologiya, sog'liqni saqlash, xavfsizlik va ish joyi muhitiga asoslangan holda qarorlar qabul qila olish, shaxs va jamiyat farovonligini ta'minlash.
TN 3.	Matematika, tabiiy fanlar va texnik fanlar sohalaridagi asosiy va ilg'or bilimlarni murakkab muhandislik masalalariga qo'llay olish, zamonaviy ilmiy yutuqlardan foydalanib hisoblash muammolarini hal etish.
TN 4.	Loyihalar ishlab chiqish va ularni boshqarish, kompaniyaning barcha texnologik va biznes jarayonlarini qamrab oluvchi ishlab chiqarishni raqamlashtirish usullarini o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish, tadqiqotlar olib borish, iqtisodiy hisob-kitoblarni tahlil qilish, shuningdek ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlagan holda ma'lumotlar bazasi tizimlarini ishlab chiqish.
TN 5.	Dasturlashda ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlarini ishlab chiqish, web dasturlash ko'nikmalariga ega bo'lish, tarmoqni dasturlash hamda tarmoq aloqa protokollari bilan samarali ishlashni tashkil etish, tarmoq orqali bo'ladigan kiber hujumlarni oldini olish.
TN 6.	Geoinformatsion texnologiyalar bilan ishlash, QGIS (Quantum Geoinformation System) va ArcGIS (Arc Geoinformation System) dasturiy muhiti yordamida vizualizatsiya qilish, real muhandislik muammolari uchun hisoblash modellashtirish usullarini qo'llash, 3D (uch o'lchovli) modellarni ishlab chiqish hamda ularning harakat animatsiyasini tashkil etish.
TN 7.	Raqamli tizimlar, kompyuter apparat vositalari, protsessorlar, xotira qurilmalari, kiritish-chiqarish qurilmalari, axborot uzatish tizimlari, operatsion tizimlar va unlardagi muammolarni bartaraf etish.
TN 8.	Sun'iy intellekt tamoyillarini qo'llash, ko'p agentli tizimlarni loyihalash, kompyuter grafikasi va ijtimoiy media marketingda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda katta hajmdagi ma'lumotlardan mazmunli xulosalar chiqarish orqali murakkab muhandislik muammolarini hal etish.
TN 9.	Signallarni raqamli usullar yordamida tahlil qilish va qayta ishlash, Arduino platformasi hamda mashinali o'qitish vositalari bilan ishlay olish, dastur uchun zarur kodlarni yozish hamda apparat va dasturiy qismlarni birlashtirib real vaqt tizimlari uchun o'rnatilgan tizimlarni sinovdan o'tkazish.
TN 10.	Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini bilish, kiberxavfsizlik sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qila olish, kibermakonda axborotni qayta ishlashda risklarni baholay olish.